

Hozirgi taraqqiyot bosqichida jismoniy tarbiya va sport mashg'ulotlarini tashkil qilishning istiqbollari: muammo va yechimlar. Xalqaro miqyosidagi ilmiy amaliy-anjuman. 2022 yil 28-29 aprel

BOLALAR-O'SMIRLAR SPORT MAKTABLARIDA YOSH SPORTCHILARNING G'OYAVIY E'TIQODINI MUSTAHKAMLASH MASALALARI

10.53885/edinres.2022.51.13.097

A.X.Hasanov

*Jismoniy tarbiya va sport bo'yicha mutaxassislarni qayta tayyorlash va malakasini oshirish institutii, "Ijtimoiy fanlar" kafedrasini mudiri, dotsent O'zbekiston, Toshkent
xasanov_1955@bk.ru*

ВОПРОСЫ УКРЕПЛЕНИЯ ИДЕЙНОЙ ПРАВСТВЕННОСТИ МОЛОДЫХ СПОРТСМЕНОВ ДЮСШ

A.X.Hasanov

*Институт переподготовки и повышения квалификации специалистов физической культуры и спорта, доцент кафедры «Общественных дисциплин»
Узбекистан, Ташкент
xasanov_1955@bk.ru*

ISSUES OF STRENGTHENING THE IDEOLOGICAL ETIQUETTE OF YOUNG ATHLETES OF CHILDREN'S AND YOUTH SPORTS SCHOOLS

A.X.Hasanov

*Institute of retraining and advanced training of specialists in physical culture and sports, dotsent of " Social Sciences "
Uzbekistan, Tashkent xasanov_1955@bk.ru*

Annotatsiya. Milliy g'oyani sportchi yoshlar ongiga singdirish uchun dastavval, uning mohiyatini chuqur o'rganish, maqsadlari, asosiy tamoyillari, o'ziga xos xususiyatlarini o'zlashtirib olish, turli vosita va shakllarni qo'llash masalalari yoritilgan.

Аннотация. Освещены вопросы воспитания подрастающего поколения в духе преданности национальной идеи, использование разных методов идейного воспитания

Annotation. In order to integrate the National idea into the minds of young athletes, the issues of in-depth study of its essence, assimilation of its goals, basic principles, peculiarities, application of various means and forms are highlighted.

Kalit so'zlar: milliy g'oya, milliy mafkura, sport, axborot texnologiyalar, axborot-kommunikatsion texnologiyalar, murakkab va tahlikali davr.

Dolzarbligi Hozirgi murakkab va tahlikali davrda Bolalar-o'smirlar sport maktablarida ma'naviy-ma'rifiy ishlarni zamon talablari asosida tashkil etish, yosh sportchilarni turli mafkuraviy xurujlaridan himoya qilish, sportchi yoshlarning hayotga ongli munosabatini shakllantirish, yon-atrofdagi yuz beradigan voqealarga dahldorlik hissini oshirish, tinch va osoyishta hayotimiz uchun xavfli bo'lgan tajovuzlarga qarshi izchil kurash olib borish bugungi dolzarb vazifalardan hisoblanadi.

Inson dunyoga kelgach dastlab tabiiy instinktlar bilan yashaydi. Sekin-asta o'zi yashaydigan oila muhiti, keyinroq mahalla, ta'lim olgan bilim dargohi, jamiyat ta'sirida inson dunyoqarashi shakllanadi, shaxsga aylanib boradi. Demak, kishining inson martabasiga erishmog'i, o'zligini tanishida ma'naviy-ijtimoiy muhit va jamiyatda orttirgan tajribasi, bilimlari, tarbiyasi muhimdir. Inson tafakkuriga oila, jamiyatdagi tarixiy shart-sharoit, jamiyatdagi siyosiy, iqtisodiy va mafkuraviy holatlar o'z ta'sirini ko'rsatar ekan, uning o'zligini-milliy o'zligini anglashda ta'lim-tarbiyaning ahamiyati benihoya katta.

Shaxs tarbiyasining muhim yo'nalishi-bu g'oyaviy tarbiyadir. Bu-inson ongi va tushunchalari tizimida hayot haqidagi falsafiy, siyosiy, huquqiy, diniy, estetik, axloqiy, kasbiy qarashlarni maqsadli shakllantirish jarayonidir. Har qanday tarbiya jarayoni oxir-oqibat, o'z maqsad va mohiyatiga ko'ra g'oyaviy tarbiyadir.

G'oyaviy tarbiya-inson, ijtimoiy guruh, millat, jamiyat dunyoqarashini shakllantirishga, ularni muayyan maqsadlarni ifoda etadigan g'oyaviy bilimlar bilan qurollantirishga yo'naltirilgan jarayondir.

G'oyalar adolatli haqqoniy bo'lib, ko'pchilikning talab-ehtiyojlariga mos kelsa, bu sohada tarbiya vositalari ta'sirchan, tarbiyachilar esa faol va fidoyi bo'lsa, g'oyaviy tarbiyadan ko'zlangan maqsadga erishiladi. Jamiyat, xalq hali o'z manfaatlarini anglab yetmagan, o'z mafkurasini shakllantirib, maqsadlar

Hozirgi taraqqiyot bosqichida jismoniy tarbiya va sport mashg'ulotlarini tashkil qilishning istiqbollari: muammo va yechimlar. Xalqaro miqyosidagi ilmiy amaliy-anjuman. 2022 yil 28-29 aprel

sari safarbar bo'lmagan hollarda begona va zararli g'oyalar ta'siriga tushish ehtimoli ortib boradi. Bu esa g'oyaviy tarbiyani yo'lga qo'yish, sog'lom mafkura tamoyillarini aholi, ayniqsa yoshlar qalbi va ongiga muttasil singdirishni dolzarb vazifaga aylantiradi.

Milliy g'oyani sportchi yoshlar ongiga singdirish uchun dastavval, uning mohiyatini chuqur o'rganish, maqsadlari, asosiy tamoyillari, o'ziga xos xususiyatlarini o'zlashtirib olish, turli vosita va shakllarni qo'llash zarur, shu bilan birga, ta'lim-tarbiyaning quyidagi usullaridan foydalanish lozim deb hisoblaymiz:

- Bolalar-o'smirlar sport maktablarida sportchilarning yoshiga mos ravishda milliy mafkurani singdirishning ma'naviy-ma'rifiy ishlar dasturlarini ishlab chiqish;

- sportchi-yoshlar ongida milliy g'oya va milliy mafkurani shakllantirish ishlarini uzluksiz tarzda olib borish;

- sport mashg'ulotlari o'quv dasturlarida, darslik va qo'llanmalarda milliy mafkura va g'oya keng aks etgan bo'lishi;

-trenerlarning g'oya borasidagi bilimlarini muntazam ravishda kengaytirib, boyitib borish;

- yosh sportchilarga yurtimizning ma'naviy-madaniy merosini o'rganishga keng imkoniyat yaratish maqsadida respublikamizdagi mavjud tarixiy obidalar, muqaddas qadamjolar va mustaqillik davrida bunyod etilgan yirik inshootlar, muzeylarga ularni sayohatga olib chiqish.

Muqaddas Qur'oni Karim, muborak hadislar, shuningdek Imom al-Buxoriy, at-Termiziy, Bahouddin Naqshband, az-Zamaxshariy, Ahmad Yassaviy, Abu Mansur Moturidiy, Burhoniddin Marg'inoniy kabi mo'tabar zotlarning al-Farg'oni y, al-Xorazmiy, al-Forobiy, ibn Sino, Beruniy, Navoiy, kabi mutafakkir allomalarning boy ma'naviy merosini o'rganish yosh sportchilarda ular qoldirgan ilmiy va madaniy merosga alohida hurmat va ehtirom tuyg'ularini shakllantirishi lozim.

Xalqimizning Eron ahamoniylari, yunon makedonlari zulmiga, arablar istilosiga, mo'g'ul-tatar bosqiniga va nihoyat podsho Rossiyasi mustamlakachiligiga qarshi olib borilgan milliy ozodlik harakati tarix sahifalarida abadiy qoldi. To'maris, Shiroq eron ahamoniylariga qarshi kurashda o'z jonini fido qildi. Yosh sportchilarga "Shunday zamonlar bo'lganki, mansabidan, boyligidan ajrab qolishdan qo'rqib sotqinlik yo'lini tutganlar ham bo'lgan, siz bunga qanday qaraysiz? Agar yurtimizga yov bostirib kelsa qaysi yo'lni tanlardingiz?" deb savol berish mumkin va bu ularni mustaqil fikrlashga chorlaydi. Ular fikrini umumlashtirib, Vatan nima, nima uchun uni himoya qilish kerakligini murabbiy tushuntirib berishi shart.

Spitamen, Muqanna, Mahmud Tarobiy, Najmiddin Kubro, Jaloliddin Manguberdi kabi qahramonlarimiz yoki chorizmning mustamlakachilik zulmiga qarshi kurashgan qahramonlar nima uchun yashashdan ko'ra dushman bilan olishib, halok bo'lishni afzal ko'rdilar, nima uchun so'nggi qoni qolguncha Vatanni himoya qildilar, kabi savollar berish yosh sportchilar o'rtasida bahs-munozara muhitini vujudga keltiradi. Natijada sportchilar "Vatan", "Ozodlik", "Vatanparvarlik" so'zlarini yanada chuqurroq anglab yetadilar.

Yosh sportchilarning g'oyaviy-axloqiy tarbiyasini yaxshilash maqsadida sport mashg'ulotlari o'quv jarayoniga ba'zi o'zgarishlar kiritish orqali turli ma'naviy-ma'rifiy tadbirlar o'tkazish, atoqli kunlarni sport musobaqalari o'tkazish bilan nishonlash, tarixiy qadamjolarga, madaniyat maskanlari va muzeylarga, tabiat qo'yniga ekskursiyalar uyushtirish ko'p foyda beradi.

Foydalanilgan adabiyotlar

1. Mirziyoyev Sh.M. O'zbekiston xalqiga yangi yil tabrigi. 2021-yil 31-dekabr
2. Abu Nasr Farobiy. Fozil odamlar shahri. Toshkent.: «O'qituvchi», 1993 yil, 182-bet.
3. Tashanov A. Vayronkor g'oyalar va buzg'unchi mafkuralar. Toshkent, "Turon zamin ziyo", 2015 yil, 37-bet.
4. Mavrulov A. Vatanni sevish mas'uliyati. T.: "Sano-standart", 2015. 67-bet.
4. Oltinov U.. Mafkuraviy targ'ibotni uslubiy takomillashtirish yo'llari. Toshkent, Mchj "Garuda". 1-bet
5. Jo'raev N. Mafkuraviy immunitet. Ma'ruza matni. T.: Ma'naviyat 2000. 16 b.
6. Zakurlaev A. G'oyalar kurashi. – T.: Movarounnahr, 2000. – 64 b.
7. Muhammad Quronov. Ogohlik: tarix va zamon saboqlari. Toshkent, Ma'naviyat, 2015. 40 - bet.
8. [Толаметов А.А. Спорт турлари бўйича тренер-ўқитувчиларни малакасини оширишда электрон дарсликлардан фойдаланиш, Academic research in educational sciences, 2021](#)

Hozirgi taraqqiyot bosqichida jismoniy tarbiya va sport mashg'ulotlarini tashkil qilishning istiqbollari: muammo va yechimlar. Xalqaro miqyosidagi ilmiy amaliy-anjuman. 2022 yil 28-29 aprel

9. Karomatovich I. A. PSYCHOLOGICAL AND PEDAGOGICAL SUPPORT OF YOUNG TEAM ATHLETES //Web of Scientist: International Scientific Research Journal. – 2022. – T. 3. – №. 02. – C. 1011-1016.
10. Ibragimov A. K. DEVELOPING THE PROFESSIONAL COMPETENCE OF TEACHERS AS A PEDAGOGICAL PROBLEM //E-Conference Globe. – 2021. – C. 333-338.
11. Karomatovich I. A. METHODS OF TEACHING CHILDREN FOR MOVEMENT ACTIVITIES IN THE PROCESS OF PHYSICAL EDUCATION //Web of Scientist: International Scientific Research Journal. – 2022. – T. 3. – №. 1. – C. 242-249.
12. Ibragimov A. K. Catalog of training tasks for training special endurance of young girl handball players. *Academicia: An International Multidisciplinary Research Journal*. Year: 2020, Volume: 10, Issue: 11. P: 486-492. DOI: 10.5958/2249-7137.2020. 01410. X.
13. Narzullayev, Farrux. "Qizlar sporti yo'nalishi bo'yicha tahsil olayotgan qizlarning yengil atletika darslarida kuch siaftlarini rivojlantirishning pedagogik asoslari." *ЦЕНТР НАУЧНЫХ ПУБЛИКАЦИЙ (buxdu. uz)* 1.1 (2020).
14. Ashrapovich, N. F. (2021). Determination of physical development of primary school students through national movement games. *Middle European Scientific Bulletin*, 11.
15. Ashrapovich, N. F. (2022). FORMS OF CONTROL OVER THE PROFESSIONAL AND PEDAGOGICAL ACTIVITY OF THE TRAINER AND ITS PEDAGOGICAL SIGNIFICANCE. *Web of Scientist: International Scientific Research Journal*, 3(1), 372-379.
16. Narzullayev, Farrux Ashrapovich, and Dinara Olimovna Begimkulova. "Sport psixodiagnostikasi fanini o'qitishda ta'lim texnologiyalardan foydalanishning o'ziga xos xususiyatlari." *Science and Education* 3.4 (2022): 1724-1730.
17. Nematovich K. S. Abduyeva Sitorabonu Savriddin kizi, Fatullayeva Muazzam Azimovna, Kurbanov Shukhrat Kuldoshevich. Using of innovation terms in physical education and sport lessons and their social and educational features //Journal of Critical Reviews. doi. – T. 10. – C. 470-471.
18. Abdueva S. S. Q. Determining the speed and strength of 14-15 year old handball players in jumping //ACADEMICIA: An International Multidisciplinary Research Journal. – 2020. – T. 10. – №. 11. – C. 1212-1220.
19. Abdueva S. S., Khurbonov S., Sabirova N. Evolution of physical performance and techniques of handball girls aged 11-12 //International Journal of Advanced Research in Science, Engineering and Technology (IJARSET). – 2019.
- 20.